



UO‘K: 365.22.129(O‘zT)8

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NODAVLAT TA‘LIM MUASSASALARINING
VUJUDGA KELISH TARIXI****ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН****THE HISTORY OF THE ESTABLISHMENT OF NON-GOVERNMENTAL EDUCATIONAL
INSTITUTIONS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN****Iminov Begzod Begijonovich**

Farg‘ona davlat universitet, O‘zbekiston tarix kafedrası dotsenti, f.f.b.f.d, (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida 1991–2024-yillar davomidagi nodavlat ta‘lim muassasalarining shakllanish tarixi, tarixiy vaziyat va aholining ijtimoiy ta‘limga bo‘lgan ehtiyojlari tahlil qilingan. “Ta‘lim to‘g‘risi”dagi Qonun asosida xususiy maktabgacha ta‘lim muassasalari, o‘rta ta‘lim va xususiy oliygohlarning tarixiy zaruriyati ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется история формирования негосударственных образовательных учреждений в Республике Узбекистан в период 1991-2024 годов, историческая ситуация и потребности населения в социальном образовании. На основе закона “Об образовании” раскрывается историческая необходимость частных дошкольных образовательных учреждений, средних учебных заведений и частных университетов.

Abstract

This article examines the evolution of non-state educational institutions in the Republic of Uzbekistan from 1991 to 2024. It provides an in-depth analysis of the historical context, socio-economic factors, and the growing public demand for diverse educational opportunities. Drawing upon the Law “On Education,” the study highlights the rationale behind the establishment of private preschools, general secondary schools, and private higher education institutions. The article underscores the pivotal role of legislative reforms, public-private partnerships, and international cooperation in shaping the landscape of private education in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: nodavlat ta‘lim, ta‘lim, xususiy ta‘lim, maktab, UNICEF, imtiyoz, o‘quv dasturlari, xususiy sherikchilik, hizmat ko‘rsatish, litsenziya, xususiy bog‘cha, ta‘lim sifati, innovatsiya, Webster, INHA.

Ключевые слова: негосударственное образование, образование, частное образование, школа, UNICEF, льготы, образовательные программы, частное партнерство, предоставление услуг, лицензия, частный детский сад, качество образования, инновации, Webster, INHA.

Key words: non-state education, private education, education system, school, UNICEF, educational privileges, curriculum development, public-private partnership, service delivery, licensing, private kindergarten, quality of education, innovation, Webster University, INHA University.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakat ta‘lim tizimida chuqur islohotlar zarurati tug‘ildi. Jumladan, davlat bilan bir qatorda nodavlat ta‘lim muassasalari (ya‘ni, xususiy va davlatga qarashli bo‘lmagan ta‘lim tashkilotlari)ni rivojlantirish masalasi kun tartibiga chiqdi. Sobiq Ittifoq davrida barcha maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlari davlatga qarashli va nodavlat sektorga ruxsat berilmagan edi. Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda nodavlat ta‘lim sektori mamlakat ta‘lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim darajalarida xususiy bog‘chalar, maktablar va oliygohlar faoliyat yuritmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim muassasalarining davlat va nodavlat shakllarda parallel rivojlanishi sohada sog‘lom raqobat va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi [1.12-15]. Shu bois O‘zbekistonda keyingi yillarda nodavlat ta‘lim muassasalariga alohida e‘tibor berilib, ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab olib borilgan siyosiy islohotlar doirasida Prezident farmon va qarorlari bilan nodavlat ta‘limga keng imtiyoz va imkoniyatlar berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLLARI

Ushbu maqola uchun ma'lumotlar yig'ishda 1991-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrga oid normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma'lumotlari va ilmiy-analitik manbalar o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunlari (1997-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2020-yilgi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun)[2.1-13], O'zbekiston Prezidentining qaror va farmonlari (nodavlat ta'lim xizmatlarini rivojlantirishga doir 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son qaror va boshqalar), Vazirlar Mahkamasi qarorlari (masalan, 2018-yil 27-martdagi 241-son qaror, 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qaror) kabi huquqiy hujjatlar matnlari tahlil qilindi. Statistika ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va tegishli vazirliklarning hisobotlari, xalqaro tashkilotlarning (BMT, UNICEF, Jahon banki va boshqalar) ta'lim bo'yicha sharhlari hamda ochiq ma'lumotlar bazalari qo'llanildi. Xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bo'yicha 2017–2023-yillarda nodavlat sektor ko'rsatkichlari rasmiy axborot agentliklari va vazirlik matbuot xizmati xabarlaridan olindi [3. 2-11].

Mustaqillik sharoitida zamonaviy ta'lim, uning milliy xususiyatlari, ta'lim sohasidagi umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi, O'zbekistonda milliy-ma'naviy uyg'unish, ta'lim masalalari mamlakatimiz olimlaridan S.Otamurodov, J.S.Ramatov, I.Ergashev, F.Musayev, N.Shermuxeimedova, R.Yuldashev, N.Namozova, N.Jumaniyozova, T.Alimardonov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot uslubi sifatida tarixiy xronologik yondashuv qo'llanilib, nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishini shartli ravishda bosqichlarga ajratgan holda o'rganildi (1991–2000-yillar, 2001–2016-yillar, 2017–2024-yillar). Har bir bosqichda siyosiy muhit va huquqiy baza tahlil qilinib, statistik o'zgarishlar raqamlar asosida ko'rsatildi.

Mustaqillikning dastlabki yillari (1991–2000) davrida O'zbekiston ta'lim tizimi sobiq tuzumdan meros qolgan holatda edi, barcha ta'lim muassasalari davlat ixtiyorida bo'lib, xususiy sektor umuman yo'q edi. 1992-yilda ta'lim tizimini isloh qilishga kirishildi, ammo nodavlat muassasalar tashkil etish amaliyoti darhol yo'lga qo'yilmadi. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini tubdan yangilashga qaratildi. Ushbu qonun bilan barcha fuqarolarga ta'lim olish huquqi kafolatlanib, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat yuritishi mumkinligi belgilandi. Natijada, 1990-yillarning ikkinchi yarmida ilk nodavlat ta'lim muassasalari paydo bo'la boshladi. Jumladan, ba'zi xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda maktab va markazlar ochildi. Masalan, 1995-yilda Rossiyaning G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filialining asos solingani O'zbekistondagi ilk xalqaro oliy ta'lim muassasasi bo'ldi. Shuningdek, 1990-yillarda ayrim xorijiy tillarga ixtisoslashgan xususiy o'quv kurslari va maktablar faoliyat boshladi. Biroq, bu davrda nodavlat sektor hali juda cheklangan bo'lib, u asosan eksperimental yoki alohida holatlar sifatida ko'zga tashlanadi [4. 51-52].

2000–2016-yillar davri – nodavlat ta'limning sekinlik bilan rivojlanish bosqichi sifatida ko'riladi. 2000-yillar boshlarida hukumat ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashni yaxshilash maqsadida ayrim xorijiy hamkorlikdagi ta'lim loyihalariga ruxsat berdi. 2002-yilda Toshkentda Westminster xalqaro universiteti (WIUT) ochildi va u Markaziy Osiyodagi birinchi xalqaro universitet bo'ldi. Bu voqea O'zbekistonning ta'lim sohasini ochishda muhim qadam edi – WIUT nodavlat, xalqaro hamkorlikdagi oliy ta'lim muassasasi sifatida faoliyat yuritib, britaniyalik hamkorlar bilan birga zamonaviy o'quv dasturlarini taklif qildi. Keyingi yillarda yana bir qancha xorijiy filiallar va xususiy oliy o'quv yurtlari paydo bo'ldi. Masalan, 2007-yilda Singapur Menejmentni rivojlantirish instituti (MDIS) Toshkentda filiali, 2009-yilda Turin Politexnika universiteti Toshkent filiali, 2014-yilda Janubiy Koreyaning Inha universiteti Toshkent filiali o'z faoliyatini boshladi. Shu bilan birga, ayrim mahalliy nodavlat o'quv markazlari va institutlar ham tashkil etildi [5.23-24].

Islohotlar davri va nodavlat sektorining yuksalishi 2017–2025-yillarni o'z ichiga olib, 2017-yildan boshlab O'zbekiston ta'lim tizimida yangi davr boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim sohasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi va bu islohotlarning ajralmas qismi sifatida nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Nodavlat ta'lim muassasalarini litsenziyalash tartibini soddalashtirish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, xususiy sektor uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar berish hamda ta'limga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish. Xususan, 2018-yil 1-yanvardan boshlab barcha nodavlat ta'lim xizmatlari faqat litsenziya

TARIX

asosida amalga oshirilishi tartibi joriy qilindi, bu esa sohada rasmiy faoliyat yuritishni osonlashtirdi [6.54-58].

Eng katta o'zgarish maktabgacha ta'lim tizimi misolida kuzatildi. 2017-yilda O'zbekistonda atigi 250 ta xususiy (nodavlat) bog'cha faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hukumat tomonidan nodavlat bog'chalarni ko'paytirish bo'yicha berilgan imtiyozlar samarasida bir necha yil ichida ular soni o'nlab barobar oshdi. 2018-yilda 1 437 taga yetgan bo'lsa, 2019-yilda 7 500 dan oshdi, 2020-yilda 12 000 dan, 2021-yilga kelib esa 18 548 ta xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritdi. Bu qisqa muddatda misli ko'rilmagan o'sish bo'lib, nodavlat bog'chalar soni davlat bog'chalari sonidan ham oshib ketdi – masalan, 2021-yilda 6000 dan sal ko'proq davlat bog'chasi bo'lgan bo'lsa, xususiy bog'chalar soni 18 mingdan ortdi. Aksariyat yangi ochilgan bog'chalar "oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi" shaklida bo'lib, kichik quvvatli (30-40 bolaga mo'ljallangan) oilaviy bog'chalardir. Maktabgacha ta'lim qamrov darajasi esa mazkur islohotlar natijasida 2017-yildagi 27% dan 2021-yilda 63% gacha oshdi. Bu esa sohadagi qilingan ishlarning samamarasini ko'rsatadi.

Umumiy o'rta ta'lim (maktab) darajasida ham 2017-yildan so'ng xususiy sektor faol rivojlana boshladi. Avvalroq, 2016-yilda sanoqli xususiy umumta'lim maktablari tajriba tariqasida faoliyat yuritgan bo'lsa, yangi tartib va rag'batlar tufayli 2018-yildan boshlab yurtimizning turli hududlarida xususiy maktablar ochildi. Masalan, 2018-yil sentabrida Jizzax shahrida "Asia School" xususiy maktabi ish boshladi. Toshkent, Farg'ona, Namangan, Samarqand va boshqa viloyatlarda ham yangi xususiy maktablar paydo bo'ldi. Natijada, xususiy maktablar soni bir necha yil ichida sezilarli oshdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2018–2019-o'quv yilida boshida mamlakat bo'yicha atigi 58 ta nodavlat umumta'lim maktabi bo'lgan bo'lsa, 2021–2022-o'quv yili boshiga kelib ular soni 135 taga yetdi, 2022–2023-o'quv yili boshiga esa 194 tani tashkil etdi. 2023-yil davomida ham ko'plab yangi xususiy maktablar ochilib, 2023-yil oxiriga borib bu ko'rsatkich yanada oshgani (taxminan 350–400 taga yaqinlashgani) kuzatildi. Xususan, 2025-yil uchun belgilangan rejaga binoan, xususiy maktablar sonini 700 taga yetkazish va ularda jami 150 ming nafar o'quvchini qamrab olish vazifasi qo'yilgan. Bu davlat tomonidan xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida erishilayotgan yutuqdir [7.23-29].

Xususiy maktablarning paydo bo'lishi ta'lim dasturlarini boyitishga ham xizmat qilmoqda. Ko'plab nodavlat maktablar xorijiy tillar va ilg'or pedagogik texnologiyalarga ixtisoslashmoqda. Masalan, yuqorida tilga olingan "Asia School" maktabida darslar Finlyandiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning ilg'or uslublarini o'rgangan holda tashkil etilmoqda, matematika, informatika va ingliz tili chuqurlashtirib o'qitilmoqda. Toshkent shahridagi ko'plab xususiy maktablar xalqaro o'quv dasturlarini (Cambridge Assessment, International Baccalaureate va h.k.) joriy qilmoqda. Umuman olganda, xususiy maktablar davlat maktablariga nisbatan o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tezroq tatbiq etish imkoniga ega va shu orqali ota-onalarga alternativ sifatli ta'lim xizmatini taklif qilmoqda.

Yuqoridagi natijalar O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalari rivojlanishi bir necha bosqichlarda kechganini ko'rsatadi. Dastlabki bosqichda (1990-yillar) davlat ta'lim tizimida monopoli mavqega ega bo'lib, xususiy tashabbuslarning ro'yobga chiqishi uchun huquqiy hamda institutsional zamin yetarli emas edi. Bu davrda hukumat asosan ta'limning davlat modeliga tayanib, resurslarni mavjud maktab va oliy o'quv yurtlarini saqlashga yo'naltirdi. Natijada, 1990-yillarning oxiriga kelib ta'lim sifati va qamrovi bo'yicha muammolar paydo bo'ldi: masalan, maktabgacha ta'lim qamrovi keskin tushib ketdi, umumta'lim maktablarining moddiy bazasi eskirdi, o'qituvchilarning malakasini oshirish masalalari dolzarbligicha qoldi. Shu sharoitda 1997-yilgi qonun va dasturiy hujjatlar xususiy sektorni rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan bo'lsa-da, amaliyotda bu g'oya sust joriy etildi. Ayniqsa, 2000-yillarda ayrim nodavlat muassasalar ochilgan bo'lsa-da, ular son jihatdan ham, ko'lam jihatdan ham ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir o'tkaza olmadi. Bu paytda davlat nodavlat sektorni rivojlantirishga hali to'liq ishonch bildirmagan, institutsional muhit ham unchalik qulay emas edi – litsenziyalash tartibi murakkabligi, soliq imtiyozlarining yo'qligi, kadrlarga bo'lgan talablar kabi omillar xususiy tashabbuslarni cheklab turgan [8.145-152].

2017-yildan boshlangan yangi taraqqiyot bosqich esa mutlaqo o'zgacha manzarani keltirib chiqardi. Yangi davlat boshqaruvida liberal islohotlarni ilgari surar ekan, ta'lim sohasida ham davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish yo'lini tanladi. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrdagi qarori davlat bilan nodavlat sektor o'rtasida sog'lom raqobat va hamkorlik muhitini yaratish g'oyasini rasman hujjatlashtirdi. Bu hujjatda ifodalangan prinsip shundan iborat ediki, "ta'lim sifati yuqori

bo'lishini ta'minlashda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhiti" zarur. Mazkur yondashuv bugungi globallashtirilgan davr talablariga to'la javob beradi. Chunki raqobat bo'lmasa, ta'lim sifati oshmaydi; aynan nodavlat muassasalar paydo bo'lishi bilan ota-onalar va talabalar uchun muqobil tanlov imkoniyati yaraldi. Endi ota-ona farzandi uchun davlat maktabidan tashqari xususiy maktabni ham tanlashi mumkin, abituriyentlar uchun esa davlat universitetiga kirolmasa, xususiy yoki xorijiy filial orqali oliy ma'lumot olish imkoni paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida davlat ta'lim muassasalarini ham isloh qilishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga undaydi [9.124-128].

Keltirilgan statistikalar nodavlat sektor joriy etilganidan beri qisqa fursatda erishilgan yutuqlarni ko'rsatadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'limda yillar davomida hal etilmay kelgan qamrov muammosi xususiy sektor yordami bilan hal bo'lmoqda – oilaviy nodavlat bog'chalar tarmog'i qishloq va chekka hududlarda tez kengayib, minglab bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab oldi. Umumiy ta'limda xususiy maktablar paydo bo'lishi, eng avvalo, yirik shaharlardagi ortiqcha yuklama muammosini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xususiy maktablar chet tillarni chuqurlashtirib o'qitish, STEM fanlariga ixtisoslashish kabi sohalarida innovatsion tajribalarni joriy qilmoqda. Yoshlarning chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshgani tufayli nodavlat o'quv markazlari (til kurslari va h.k.) soni ham keskin ko'paydi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanish va rivojlanish tarixi mustaqillikdan so'ng bosqichma-bosqich kechdi. Dastlab, 1990-yillarda sobiq tuzumdan meros markazlashgan ta'lim tizimini isloh qilish asnosida nodavlat muassasalar g'oyasi paydo bo'ldi. 1997-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bu borada huquqiy asos yaratgan bo'lsa-da, amaliy rivojlanish sekin kechdi. 2017-yildan boshlangan siyosiy islohotlar davrida esa nodavlat ta'lim muassasalarining rivojiga kuchli turtki berildi. Prezident qaror va farmonlari bilan xususiy sektor uchun misli ko'rilmagan imtiyozlar yaratildi (soliq va bojxona imtiyozlari, kreditlar, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish erkinligi va h.k.), tartib-qoidalar soddalashtirildi (onlayn litsenziyalash va b.). Shu tufayli, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim sohalarida xususiy muassasalar soni keskin oshdi.

Tarixiy nuqtayi nazardan, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish – ta'lim sifati va qamrovini oshirishning muhim omillaridan biridir. 1991–2016-yillarda faqat davlat imkoniyatlariga tayanish ayrim sohalarida qoniqarsiz natijalarga olib kelgan bo'lsa, 2017-yildan keyingi davlat-xususiy hamkorlik siyosati qisqa vaqt ichida aniq ijobiy samara berdi: maktabgacha ta'lim qamrovi oshdi, maktablarda yangi metodlar joriy etildi, oliy ta'limda qabul ko'lami kengaydi va xalqaro maydonda tan olingan diplomlar berila boshlandi. Nodavlat sektor ta'limga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilmoqda, bu esa davlatning byudjet yukini yengillashtiradi va resurslarni tejash imkonini beradi.

Shu bilan birga, nodavlat ta'lim tizimi barqaror rivojlanishi uchun davlatning doimiy e'tibori va qo'llab-quvvatlashi zarur. Kelgusida ta'lim sifati ustidan nazoratni kuchaytirish, nodavlat muassasalarda ishlaydigan pedagoglarning malakasini oshirish, ta'limdagi tenglikni ta'minlash maqsadida kam ta'minlangan oilalar farzandlariga nodavlat sektor eshiklarini ham ochib berish kabi vazifalar ustuvor bo'lib qoladi. Ayni vaqtda, davlat organlari va xususiy ta'lim provayderlari o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, ularning muammolarini eshitish va yechimini topish mexanizmlari rivojlantirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalari paydo bo'lishi va rivoj topishi – bu so'nggi o'ttiz yil ichida ro'y bergan eng muhim ijtimoiy jarayonlardan biridir. Bu jarayon ta'lim sohasida yangi innovatsiyalar, qo'shimcha resurslar va tanlov muhiti olib kelib, pirovard natijada yosh avlodning zamonaviy bilim olishi uchun keng yo'l ochdi. Konstitutsiyaviy darajada belgilanganidek, endilikda davlat ham davlat, ham nodavlat ta'lim tizimini rivojlantirishga mas'uldir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev R. Talim falsafasi – ta'lim jarayonini rivojlantirishning nazariy-falsafiy asosi: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disseyertatsiyasi. – Toshkent, 2019; 87 b.
2. lex.uz. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 28.09.2020. 25 b.
3. Kursiv.media sayti // "O'zbekistonda qancha nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari bor" 2023-yil 8-avgust.
4. Hayitov Sh.N. O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilishda davlat-xususiy sherikchiligi rivojlantirish masalalari. Monografiya. – Buxoro, 2020. 201 b.
5. Bobir Muratov, Stephen Wilkins, 2024 – "O'zbekistonni transmilliy oliy ta'lim markazi sifatida rivojlantirish"

TARIX

tadqiqoti (2018–2022-yillarda xorijiy universitetlar filiallari statistikasi) 21.04.2025

6. Saidov X. Ta'lim muammolari yechimi – taraqqiyot garovi // O'zbekistonda oliy ta'lim. – 2023. – №4.

7. Abdullayev J.A. Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari // "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2021. – №6. <http://iqtisodiyot.sul.uz>

8. B.Iminov. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Toshkent, 2023. 245 b.

9. F.Zohidov. Xususiy maktablarning bugungi jamiyat uchun qo'shgan hissasi. // UzA. Elektron jurnal. 2024. 303

b.